

RAUF PARFI LIRIKASIDA TOG‘ OBRAZINING BADIY AHAMIYATI

Mahliyo Raximboyeva

Urganch davlat universiteti talabasi,

mahliyoraximboyeva73@gmail.com

Rauf Parfi-istiqlol davri o‘zbek adabiyoti chamanzoriga o‘zining xushovoz sasi va nomi bilan kirib kelgan iste’dodli ijodkor. Shoirning badiiy merosi hali-hanuz kitobxonlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Rauf Parfi haqida uning zamondoshi va shogirdi Vafo Fayzulloh shunday yozadi: “Ajab emas bizga, o‘zbekka, turkiylarga, insoniyatga tilimiz balog‘ati bilan ulug‘ shoirni ehson qilgan ildizlarni qaytadan kashf qilib sururlanish qatorida, Rauf Parfini bergan xalqning ruhiyatini, eng muqaddas qadriyatlarini e‘zozlasak. Qolaversa, shoirning o‘rganish va izlanishlari misolida o‘zbek adabiyoti, she‘riyati taraqqiyoti, keyingi ikki asr ijtimoiy voqealari bois o‘z o‘zanlarimizdan chekinishlar, ko‘proq rus tili orqali dunyo adabiyoti bilan tanishish va ta’sirlanishlarni ham mushohada qilish mumkin bo‘lar”¹⁰. Turkiygo‘y ijodkorning lirikasi ayni shu aytilgan fikrlar hamohangdir.

Rauf Parfi ijodining ko‘pchilik qismini tabiat tasviriga bag‘ishlangan she‘rlar tashkil qiladi. Ijodkor har safar yangi misralarini yozishdan avval peyzajik timsollarga yuzlanadi. Jumladan, mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda an’anaviy timsollardan biri bo‘lgan tog‘ timsoli shoir lirikasida ham faol obrazlardan biri hisoblanadi. Biz bu safar shoir she‘riyatida misralarga badiiy-estetik ruhiyat va kayfiyat bag‘ishlovchi timsol bo‘lgan tog‘ obrazini tahlilga tortishga jazm qildik.

1. Tog‘-o‘z viqori va mustahkamligi bilan maqtanuvchi timsol. Shoir tog‘ning mana shu xususiyatini shoirona misralarda aks ettiradi. “Kumush havolar” jumlasini orqali shoir kumush qishga ishora qilmoqda. Ya‘ni tog‘ning doimiy hamrohi va suhbatdoshi kumush qishning ziynati-qor bilan go‘zal va purviqor:

Kumush havolar-la o‘rtogi

Go‘zalligi bilan yashnar tog‘...¹¹

2. Tog‘-yuksaklik va ulkan maqsad ramzi. Ijodkor mazkur baytlarda yoshlik davrini esga oladi. Jo‘shqinlik va shoshqin bo‘lgan paytlarini yozar ekan, hayotni sevishini, orzulari va maqsadlari hattoki ulkan tog‘lardan yuksakda bo‘lganligini ifodalagan:

Hayotga to‘ymagan ko‘zlarim

Vallomat tog‘lardan yuksakda,

Yurakda qaynagan so‘zlarim,

Hislarim yong‘ini yurakda.¹²

¹⁰ Vafo Fayzulloh. Rauf Parfining “Turkiston ruhi” to‘plamiga yozgan maqolasi so‘z boshidan.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 7.

¹¹ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 28.

¹² Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 63.

Shoirimizning mazkur misralari ham yuqoridagi fikrimizning mantiqiy davomidir. Bu safar lirik qahramon o'zini daryo timsoliga qiyos qiladi. Daryoning har doim uyg'og'ligini ichki va tashqi xarakteriga mengzaydi, intilishlarini esa tog' timsoli bilan ifoda etadi:

Daryo kabi doimo uyg'og',
 Intilishim tog' kabi baland...¹³

3. Tog'-ona tabiatning vazmin va sabrli farzandi. Mazkur satrlarda tabiatning go'zal manzarasi tasvirlangan. Shoir tog'ning mudrashidan takrorlanmas jonlantirish san'atini shakllantirgan. Satrlardagi "uyqu", "besas mudrash" jumalari shoirning va jamiyatning hol-ahvolidan so'zlamog'da. Ya'ni tog' bu yerda majoziy ma'noda xalqni ifodalaydi. Xalqning uyqusi esa uning chorasizligidir:

Bir yoni baland tog', mudraydi besas,
 Bir yoni so'ngsiz-uxlaydi uyqu...¹⁴

4. Tog'lar va daryolar... Ona tabiatning shoshqin va vazmin timsollari bo'lgan mazkur obrazlar lirik qahramonning va shoirimizning doimiy hamrohi ekanligi quyidagi misralar orqali anglashiladi. Daryolar va tog'lar lirik qahramonni yo'lga chorlaydi. Bu yerda yo'l deyilganda, ezgu ishlar, barcha yaxshiliklar manzili nazarda tutilmog'da. Shoir lirik qahramonga bu yo'lda daryodek shoshqin bo'lishini, quyoshdek porlashini, tog'lardek yuksak bo'lishini shoirona uqtirmog'da:

Chaqiradi tog'lar, daryolar,
 Yana yo'lga chorlaydi meni.
 Meni chorlab quyoshlar yonar-
 O'rganadir yonish ilmini,
 Chaqiradi tog'lar, daryolar¹⁵.

5. Buloq-tog'ning kichik va quvnoq bo'lakchasi. Tog'ning ich-chidan oqib keladi. U judayam sof va toza. Mazkur misralarni atoqli nazariyotchi olim Ilhom G'aniyev quyidagicha tahlilga tortadi: "Shoirning o'xshatishi noan'anaviy va ayni zamonda ohori. Ya'ni buloq-bu shoirning o'zi, tog'dek g'am, azobdan, sevgidan zada bo'lib ko'z yoshlari dard, fig'on, nola, na'ralarining buloq ramzida otilib chiqayotganligi. Uning otilib chiqishi-lirik qahramon ko'ksi, qalbidan otilib chiqayotgan "sevgining zahari"-alamli, zardobli ko'z yoshlari, dil "qoni"¹⁶. Darhaqiqat, mazkur misralarda ham peyzajik timsollar lirik qahramonning pafosini ochib bergan:

Tog'da bir buloq bor zor-u zor,
 Ko'ksida sevgining zahari.
 Ul manim ko'nglumdek intizor,

³ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 64.

¹³ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 78.

⁴ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 126.

¹⁶ G'aniyev I. Rauf Parfi O'zturk dunyosi.-T.: Muharrir nashryoti, 2021.

Tog‘lardan keladir sarsari¹⁷

6. Buloq-tabiatning shoshqin farzandi, tog‘lar bilan hamroh bo‘luvchi timsol. Rauf Parfi buloq obrazini ham e‘tiboridan chetda qoldirmadi. Ushbu misralarda ijodkor buloqni tog‘larning sevgisini o‘g‘irlanganlikda aybdor qiladi. Hatto gullarni (faqat gullar emas, balki go‘zal narsalar, hodisalar nazarada tutilmoqda) ham qiyo boqmasligi buloqning o‘zini butun dunyo go‘zalliklaridan ustun qo‘yayotganligini ko‘rsatadi:

Tog‘larning sevgisin o‘g‘irlab,
 Boqmaydi ming turli gullarga...¹⁸

7. Tog‘lar va o‘tloqlar haqiqiy hayotda ham, badiiy adabiyotda ham har doim hamroh bo‘lib kelishgan. Yam-yashil o‘tloqning bag‘ridan shoshqin buloqning o‘tishi eng ajoyib tabiat manzarasidir. Mazkur satrlarda ham timsollar o‘z ma‘nosida ifoda etilgan va misralarda badiiy ko‘tarinkilik kayfiyati yuqori:

Tog‘lar aro bir oydin buloq,
 Atrofida shivirlar o‘tloq...¹⁹

8. Tog‘lar-lirik qahramonning harakatga chorlovchi, kelajakka yo‘llovchi badiiy hamrohi. Tovushsiz faryod chekayotgan qahramonga quyosh najot: quyosh mehr va issiq taft ramzi; osmon va tog‘lar esa quvvat: yuksaklik va ertanggi kun uchun ishonch ramzi sifatida gavdalangan:

Lov-lov yonayotir quyosh-ul najot,
 Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog‘.
 Shunday yuragimda tovushsiz faryod²⁰

9. Musibat tog‘lari-xalqning qayg‘uli va alamli hayoti. Tog‘ timsolini ramziy ma‘noda xalqimizga qiyos qilsak, “qora qon” zamonning mustabid kuchlariga ishora qilmoqda. Ushbu misralarni tahlilga tortar ekanmiz, asosan, jamiyat va lirik qahramonning ahvoli badiiy kayfiyatda tasvir etilganligiga yana bir marta guvoh bo‘ldik:

Tubanda musibat tog‘lari,
 Qora qon ichindan kechadir...²¹

“Rauf Parfining majoziy timsollardan tiklangan badiiy tafakkuri ilk satrlardan oq erk istagi va ozodlik ruhi, jamiyatdagi zulmga, ijtimoiy adolatsizlikka, tengsizlikka, nohaqlikka qarshi isyon g‘oyalari bilan to‘yingandi. Rauf Parfi XX asr o‘zbek poeziyasida, fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san‘at darajasiga ko‘tardi, sof tuyg‘uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini betakror yo‘sinda omixtalashtirdi”²². Xulosa qilganda, Rauf Parfi o‘z lirikasida obrazlarni mohirona tasvirlaydi. Shoirimizning tabiat bilan oshnoligi yuqoridagi misralardan dalolat beradi.

¹⁷ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 133.

¹⁸ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 133.

¹⁹ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 135.

²⁰ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 176.

²¹ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 224.

²² Taqdim. Abdulkarim Bahridin/Shukur Qurbon. Rauf Parfi saboqlari.-T., 2014.



Timsollar turli xil manzaralarda gavdalanadi: ijodkor nuqtayi nazari bilan turlicha talqin etiladi va har safar o'ziⁿⁱning yangidan yangi qirralari bilan she'ning poetik ruhiyati va badiiyatini ta'minlashga xizmat qilganligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vafo Fayzulloh. Rauf Parfining "Turkiston ruhi" to'plamiga yozgan maqolasi so'z boshidan.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 7.
- 2.Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashryot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
- 3.Taqdim.Abdulkarim Bahriddin/ Shukur Qurbon. Rauf Parfi saboqlari.-T.,2014.
4. G'aniyev I. Rauf Parfi O'zturk dunyosi.-T.: Muharrir nashryoti, 2021.